



Xalq so'zi

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 19-dekabr, № 266 (9161)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI YAPONIYAGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev
18-dekabr kuni rasmiy tashrif
bilan Tokio shahriga keldi.

“Xaneda” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Yaponiya ichki ishlar va kommunikatsiyalar vaziri Yoshimasa Xayashi va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tokio shahriga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiyada mehnat qilyotgan va tahsil olayotgan vatandoshlarimiz bilan uchrashib, ular bilan suhbatlashdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yurtdoshlarimizning orzu-umidlari, maqsad va rejalar haqida ochiq va samimiy muloqot bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz vatandoshlarimizga ishi va o'qishida muvaffaqiyatlar tilab, ular Kunchiqar yurtda o'ttirgan bilim va tajribalar Vatanimiz taraqqiyoti hamda xalqimiz farovonligiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 19-20-dekabr kunlari bo'lib o'tadi. O'zbekiston Prezidenti Yaponiya Imperatori Naruxito, Bosh vaziri Sanae Takaichi va boshqa rasmiylar, ishbilarmon doiralarda hamda akademik jamoat vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

Shuningdek, O'zbekiston yetakchisi “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etadi.

O'zA.

Eksklyuziv intervyu

Kenji XIRATA:

YAPONIYA – O'ZBEKISTON MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA QADAM QO'YMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” birinchi sammitidagi ishtiroki arafasida ushbu mamlakatning O'zbekistondagi elchisi Kenji Xirata “Dunyo” AA muxbiriga intervyu berib, ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvlar, “C5+” formatining ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdi.

– Avvalo, intervyuga vaqt ajratganingiz uchun rahmat. Ma'lumki, Yaponiya O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, bir so'z bilan aytganda, barcha sohalaridagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi, shunday emasmi? Sizningcha, ikki davlat hamkorligini yanada kengaytirish va yangi darajaga olib chiqishda qaysi yo'nalishlar eng istiqbolli?

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylarining Yaponiyaga tashrifi arafasida suhbatlashayotganimizdan mamnunman. Ta'kidlashim kerakki, O'zbekiston Yaponiya uchun strategik hamkor bo'lgani sababli bu tashrif strategik sherikligimizda muhim qadam bo'ladi. Yaponiya – O'zbekiston strategik munosabatlari hozirda yangi bosqichga o'tmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng ikki davlat hukumatlari o'rtasida qator hamkorlik dasturlari yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda biz mutlaqo boshqacha O'zbekistonni ko'raymiz. Yangi O'zbekiston dunyoga ochiq va xorijiy davlatlar bilan aloqalar orqali modernizatsiyaga erishishga intilmoqda. Bu jarayonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va savdo muhim rol o'ynaydi va bu, asosan, xususiy sektor qo'lidadir. Yaponiya



– O'zbekiston strategik hamkorligining kelajagi, asosan, xususiy sektorga qaratiladi. Albatta, hukumatlar uni qo'llab-quvvatlashga harakat qilmoqda. Shu bois hamkorlik sur'atini saqlab qolish va uni yanada kuchaytirishga intilamiz.

– Siyosiy va iqtisodiy hamkorlikka alohida urg'u berdingiz. Shu o'rinda yana bir muhim jihatni tilga olishimiz kerak, bu – madaniy diplomatiya va ta'lim sohasi. Bunga xalq diplomatiyasi, yapon tilini o'qitish, talabalar almashinuvi kabi ko'plab yo'nalishlarni misol keltirish mumkin. Sizningcha, ushbu sohada ikki tomonlama munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishga nimalar turtki bo'la oladi?

– Ha, inson resurslarini rivojlantirish doimo munosabatlarning markazida bo'lib kelgan. Yaponiya hukumati o'zbekistonlik yoshlar uchun qator stipendiya dasturlarini amalga oshirib kelmokda. Bugungi kunda 2 400 nafardan ortiq o'zbekistonlik yoshlar Yaponiyada tahsil olmoqda.



KO'P QIRRALI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan ushbu davlatga rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarish yo'lidagi tarixiy qadam bo'ldi.

Aks sado

O'zbekiston bilan Yaponiyaning do'stona munosabatlari va hamkorlik aloqalarining ildizlari ko'p asrlar tarixiga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li eng ravnaq topgan davrlarga borib taqaladi. Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan, diplomatik munosabatlarning ham samarali o'rnatilgan.

Mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti ikki tomonlama hamkorlikning muhim mexanizmidir. Ushbu format Kunchiqar yurt va mintaqamiz mamlakatlar o'rtasida savdo-sotiq, investitsiyalar, transport hamda logistika, qishloq xo'jaligi, turizm va ta'lim sohalaridagi sheriklikni yanada chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda Yaponiya O'zbekistonning eng ishonchli iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlaridan biridir. Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'mitalarning 17 ta yig'ilishi bo'lib o'tgan. Oxirgi besh yil ichida o'zaro tovar aylanmasi 2,3 baravar oshib, 450 mln. dollardan ziyodni tashkil etgani, investitsiyalar hajmi esa 4,5 mlrd. dollardan ortgani iqtisodiy aloqalarning yuqori dinamikasini ko'rsatadi.

O'zbekiston – Yaponiya o'rtasida joriy yilning oxirgi o'n oylikdagi tovar aylanmasi 326,8 mln. dollar, eksport hajmi 4,85 mln. dollar va import 321,95 mln. dollarga yetgan. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yapon kompaniyalari esa energetika,

kimyo sanoati va transport sohalarini modernizatsiyalashda faol ishtirok etmoqda.

O'zbekistonda 84 ta qo'shma korxona, jumladan, 50 tasi yuz foiz Yaponiya kapitali ishtirokida faoliyat yuritaypti. Yaponiyaning 13 ta kompaniyasining vakolatxonalari akkreditatsiyadan o'tkazilgan. Ularning asosiy faoliyat yo'nalishlari neft-gaz, neft-kimyo va kimyo sanoat, energetika uskunalarini ishlab chiqarish, mashinasozlik hamda mashinasozlik mahsulotlari, transport-logistika xizmatlari, savdo operatsiyalari, ta'lim va turizm sohalarini tashkil etadi.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik ham ikki

tomonlama munosabatlarning strategik xususiyatidan dalolat beradi. So'nggi yillarda parlamentlararo munosabatlar jadal rivojlanib bormoqda. Xususan, ikki mamlakat parlamentlarida do'stlik guruhlari tashkil qilingan, O'zbekiston – Yaponiya parlamentlararo forumi yig'ilishlari muntazam o'tkazilmoqda, o'zaro tashriflar almashilib, uchrashuvlar va onlayn muzokaralar bo'lib o'tmoqda. Mamlakatimiz rahbarining Tokioga tashrifidan ko'zlangan eng ustuvor yo'nalishlardan biri – “yashil” iqtisodiyot sohasidagi hamkorlik. Chunki Yaponiya iqlim o'zgarishiga qarshi kurash va energiya tejamar texnologiyalar bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA DAXLDOR MUHIM TADBIR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi tomonidan “O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning dolzarbligi va ahamiyati” mavzuida seminar tashkil etildi. Unda deputatlar, Milliy statistika qo'mitasi vakillari, ekspertlar, OAV xodimlari qatnashdi.

Ma'lumki, “Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi Qonunda mamlakat nufusini kamida har 10 yilda, qishloq xo'jaligini esa har 5 yilda ro'yxatga olish belgilangan. 2021-yilda aholi va 2022-yilda qishloq xo'jaligi sinov tariqasida ro'yxatga olingan. To'liq ro'yxatga olishni amalga oshirish uchun zarur texnik, huquqiy asoslar va boshqa omillarga tayyorgarlik ishlab chiqilganidan so'ng ushbu tadbir 2026-yilga ko'chirilgan.

Seminarida aytilganidek, ro'yxatga olish 2026-yil 15-yanvardan – 28-fevralgacha bo'lib o'tadi. Mazkur jarayon uch bosqichda tashkil etiladi. Dastlabki 17 kun davomida aholiga internet orqali ma'lumotlarni kiritish imkoniyati yaratiladi. Bunda fuqarolar “census.stat.uz” portali orqali “OneID” tizimi yordamida ro'yxatdan o'tishadi. Aholi o'zi va oila a'zolari to'g'risidagi savollarni mustaqil to'ldirishi mumkin bo'ladi. Keyingi bir oy

mobaynida esa “mahalla yetitilgi” a'zolari ishtirokida uyuma-uy yurib ma'lumotlar yig'iladi.

Shuningdek, jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun “mahalla yetitilgi” a'zolari maxsus dasturlar asosida tayyorlanadi va faoliyati rag'batlantiriladi. Ularning aholi bilan doimiy muloqotda bo'lishi va mahalliy kishilar ehtiyoji hamda sharoitlarni yaxshi bilishi ro'yxatga olish ma'lumotlarining sifati, haqqoniyligi va aniqligini kafolatlaydi. Bu yondashuv nafaqat iqtisodiy tejamarlikni ta'minlaydi, balki davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Tadbir ishtirokchilari qayd etganidek, ro'yxatga olish jarayonlari yakunlangandan so'ng ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi boshlanadi. Natijalar Yevropa statistlar konferensiyasining tavsiyalariga muvofiq umumlashtiriladi. Shu tariqa mamlakatimiz nufusining



soha muassasalarida energiya samaradorligini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar uchun qo'shimcha mablag' ajratilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari, byudjet mablag'larining maqsadli, samarali sarflanishini oshirish, byudjet intizomini mustahkamlash doirasida mablag'larning bir qismini maqbullashtirish va ularni qo'shimcha xarajatlarga yo'naltirish nazarda tutilmoqda.

Senatlar 2025-yil uchun Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunga kiritilayotgan o'zgartirishlar mamlakatimizni ijtimoij-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Muhokama yakunida senatorlar qonunni ma'qulladi.

Shundan so'ng “2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat

byudjeti to'g'risida”gi qonun ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, mazkur qonunning maqsadi 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Senatorlar ta'kidlaganidek, 2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida aholi turmush darajasini yaxshilash, xalq farovonligini yuksaltirish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning sog'liqni saqlash tizimi bilan qamrovini kengaytirish va sifatli ta'limga ega bo'lish kabi ijtimoij soha maqsadlariga ustuvorlik berilgan.

Jumladan, Davlat byudjeti xarajatlarning qariyb 55 foizi yoki 220,0 trillion so'mi ijtimoij sohaga yo'naltirilmoqda. Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ta'lim sohasi uchun 100 trillion so'm nazarda tutilgan,

tibbiyot sohasiga esa 49 trillion so'm yoki joriy yildagiga nisbatan 11,4 foizga oshirilmoqda.

Qonunga asosan kelgusi yilda inflyatsiya darajasi 7 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda Davlat byudjeti xarajatlari 402,6 trillion so'mni, daromadlari esa 368,9 trillion so'mni tashkil etmoqda. Davlat maqsadli jam'armalari daromadlari esa 78,6 trillion so'm, xarajatlari 74,4 trillion so'm (byudjetlararo transfertlar hisobga olinmagan holda) miqdorida rejalashtirilmoqda.

Xususan, mazkur qonunda 2026-yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 515,8 trillion so'm, xarajatlari esa 567,6 trillion so'm miqdorida shakllantirilgan. Bunda konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmasligi vazifasi nazarda tutilgan.

FAOL HAYOT UCHUN BERILGAN IMKON

Nogironlikning og'ir turlari deganda, insonning kundalik hayot faoliyatini mustaqil amalga oshirish imkoniyatlarini keskin cheklaydigan holatlar tushuniladi. Bunday holatlarda bolalarning o'z-o'ziga xizmat qilish, harakatlanish, muloqot, ta'lim olish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlari nisbatan cheklangan bo'ladi.

Sarhisob

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda nogironligi bor shaxslar soni million nafardan ortiq. Shundan 170 810 nafari voyaga yetmaganlar bo'lib, aynan og'ir nogironlikka ega bolalar tibbiy, ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi va ijtimoij muhofaza qilinishi davlat va jamiyat olidagidagi muhim vazifalardan biridir.

Yurtimizda nogironligi bo'lgan bolalarning huquqlari Konstitutsiya, milliy qonunlar va xalqaro me'yorlar bilan kafolatlangan. 2021-yil iyunda O'zbekiston Nogironlar huquqlari to'g'risidagi

Konvensiyan (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qildi. Shu orqali mamlakatimizning inson huquqlarini ta'minlashga sodiqligi, shuningdek, Konvensiya tamoyillari va “Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin” tamoyiliga muvofiq nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ilgari surish bo'yicha chora-tadbirlar muhimligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Prezidentimizning shu yil 3-fevraldagi “Nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoij xizmat va yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha uchun kunduzgi parvarish xizmatini bosqichma-bosqich joriy qilish imkoniyatini yaratildi. Hujjat asosida 2025-yil 1-martdan boshlab yangi tizim pilot loyiha sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, qator viloyatlar hamda Toshkent shahrida yo'lga qo'yilmoqda. Loyiha davlat-xususiy sheriklik modeli asosida amalga oshiriladi va 3 yoshdan 18 yoshgacha bolalarni qamrab oladi.





MAMLAKAT TARAQQIYOTIGA DAXLDOR MUHIM TADBIR



– Aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish nafaqat davlat organlari uchun statistik maʼlumotlar yigʻish vositasi, balki butun jamiyatning farovonligi va kelajak rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiluvchi muhim tadbir. – deydi Qonunchilik palatasi deputati Odinaxon Otaxonova. – Ushbu jarayonda olingan maʼlumotlar mamlakatimiz barcha fuqarolarining yashash sifati, ijtimoiy farovonligi va kelajak imkoniyatlariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu bois har bir fuqaroning faol va masʼuliyatli ishtiroki ushbu tarixiy jarayonning muvaffaqiyatini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.



Seminarda aholi va qishloq xoʻjaligini roʻyxatga olish ishlarini samarali tashkil qilish boʻyicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

SAMARADORLIK KOʻRSATKICHLARI QONIQARLIMI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy masalalar qoʻmitasi tomonidan respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarining koʻrib chiqilishi hamda rahbar va ular oʻrinbosarlarining samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI) bajarilishi yuzasidan eshituv oʻtkazildi.

Unda Sogʻliqni saqlash, Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirliklari hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining mazkur yoʻnalishdagi axborotlari tinglandi.

Taʼkidlanganidek, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari toʻgʻrisida”gi Qonun talablariga muvofiq, soʻnggi yillarda aholi bilan ochiq muloqotni taʼminlash, murojaatlarni oʻz vaqtida koʻrib chiqish va ularni hal etish boʻyicha samarali tizim shakllanmoqda.

Yigʻilishda bu boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar koʻrib chiqildi. Maʼlum qilinganidek, hisobot davrida Sogʻliqni saqlash vazirligi va uning tizim tashkilotlariga 82 929 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 62,5 foizi ijobiy hal etilgan. Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligiga 103 748 ta murojaat kelib tushgan boʻlsa, ularning 59 foizi qanoatlantirilgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligiga esa 69 600 ta murojaat yuborilgan boʻlib, ularning 63 foizi ijobiy yechim topgan. Muhokama davomida deputatlar

amalg oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, murojaatlar bilan ishlashda ayrim kamchiliklar mavjudligini qayd etdi. Oʻz navbatida, ularni koʻrib chiqish sifati oshirish, masʼul xodimlarning malakasi va javobgarligini kuchaytirish boʻyicha qator taklif va tavsiyalar bildirildi.

Yigʻilishda, shuningdek, Prezidentimizning 2024-yil 13-martdagi Farmoni bilan belgilangan respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimi – KPI ijrosi muhokama qilindi. Deputatlar vazirlar va ularning oʻrinbosarlari uchun belgilanadigan koʻrsatkichlar aniq maqsadlarga asoslanishi, raqamlar esa chuqur tahlil qilinishi lozimligini taʼkidladi.

Yakunda qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

QONUN IJODKORLIGIGA TAHLILIY YONDASHUV

Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi bilan hamkorlikda yigʻilishi oʻtkazildi.

Prezidentimiz oʻtgan yil noyabr oyida Oliy Majlis palatalari majlislarida soʻzlagan nutqlarida Qonunchilik palatasi qoʻmitalarining faoliyat yoʻnalishlaridan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqot muassasalari, tahlil markazlari bilan sheriklikda ish olib borish tashabbusini ilgari surgan edi.

Shu maqsadda Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi hamda Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi oʻrtasida hamkorlik memorandum imzolandi, istiqboldagi rejalar tasdiqlandi.

Yigʻilishda ushbu memorandum qonun ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, mamlakat taraqqiyotiga qaratilgan strategiyalarni qoʻllab-quvvatlash, qoʻmita faoliyatiga ilmiy-tadqiqot tashkilotlarini faol jalb etish borasida oʻzaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi aytildi.

Hamkorlik doirasida bir nechta yoʻnalishlar belgilab

olindi. Jumladan, qonun loyihalarini ishlab chiqishga nazorat-tahlil tadbirlarini oʻtkazish, qonun loyihalarini tartibga solish taʼsirini baholash jarayonida takliflar almashish, tegishli ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, tahlil markazlari yuborgan takliflarni muntazam oʻrganib, tahlil qilib borish, ilgʻor xorijiy tajribani milliy qonunchilikka implementatsiya qilish boʻyicha takliflar tayyorlash hamda qoʻmitaga taqdim etish kabi muhim masalalarda aloqalarni mustahkamlashga kelishib olindi. Shuningdek, oʻzaro manfaatli dolzarb yoʻnalishlar boʻyicha birgalikda konferensiya, seminar-trening, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligi urgʻulandi.

Yigʻilishda deputatlar va ishtirokchilar mazkur masala yuzasidan oʻz fikr-mulohazalari, hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha takliflarni bildirdi.

“Xalq soʻzi”.

Kenji XIRATA:

YAPONIYA – OʻZBEKISTON MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHGA QADAM QOʻYMOQDA



Bundan tashqari, Nagoya universiteti kabi yetakchi oliy taʼlim muassasalari boshchiligid

oʻzaro almashinuv dasturlari yoʻlga qoʻyilgan. Biz bu yoshlar Yaponiyada oʻqishni tamomlagach, oʻz Vatanga – Oʻzbekistonga qaytib, Yaponiyada oʻrtirgan bilim va tajribalari orqali mamlakat rivoji va modernizatsiyasiga hissa qoʻshishga umid qilamiz. Menimcha, bu ham oʻzaro hamkorligimizga yanada turki beradi.

– Yaponiya barqaror innovatsiyalar, energiya samaradorligi va ekologik toza texnologiyalar sohasida global yetakchilardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston ham “yashil” iqtisodiyot va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ustuvor yoʻnalish sifatida belgilamoqda. Sizingnacha, ushbu muhim sohada, ikki davlat qanday qoʻshma tashabbuslarni amalga oshirishi mumkin?

– Ha, bu borada koʻplab aniq yoʻnalishlar mavjud. Taʼkidlaganingizdek, qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish yoki energiya samaradorligini oshirish kabi sohalarida hamkorlik qiziq imkoniyatlari juda koʻp. Alohida eʼtibor qaratishimiz lozim boʻlgan sohalardan biri – iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda qoʻllaniladigan qoʻshma kreditlash mexanizmidir. Hozircha, biz aniq loyihalar

shakllantirish ustida ishlayapmiz. Yaqin kelajakda bunday loyihalar albatta amaliyotga tatbiq etiladi.

Biz Yaponiya texnologiyalari va “yashil” transformatsiya borasidagi tajribasi Oʻzbekiston intilayotgan “yashil” iqtisodiyot rivojiga katta hissa qoʻsha oladi, deb hisoblaymiz. Shu bois har ikki tomon manfaatiga xizmat qiladigan hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida aniq va amaliy loyihalar ishlab chiqilishiga umid bildiramiz.

– Suhbatimizning eng muhim qismi, yaʼni kutilayotgan “Markaziy Osiyo va Yaponiya” muloqotiga toʻxtalsak. Ushbu format gʻoyalari va tashabbuslar almashish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu oʻrinda, “Markaziy Osiyo q” formati ilk bor Yaponiya bilan boshlanganini alohida taʼkidlash joiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ushbu format doirasida hozirgacha qanday asosiy yutuqlarga erishildi va kelajakda qaysi istiqbolli tashabbuslarni amalga oshirish kutilmoqda?

– “Markaziy Osiyo + Yaponiya” sammitining birinchi bosqichi samarali oʻtishiga ishonamiz. Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning yetakchiligi va tashabbusni tufayli Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarining ham ushbu formatga qiziqishi va keng koʻlamli hamkorlikka intilishi oshmoqda. Oʻzaro tashriflar odatiy

holga aylandi. Suv resurslarini boshqarish, chegara nazorati, iqlim oʻzgarishi va boshqa masalalar boʻyicha doimiy muloqotlar olib borilmoqda.

Bugun “C5” yoki “C6” mamlakatlarining hamkorlik qilishi oddiy va tabiiy hol boʻlib qoldi. Ammo 2004-yilda Yaponiya “C5 + 1” formatini boshlab bergan paytda vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Shundan buyon qanchalik katta yoʻl bosib oʻtilganini koʻrishimiz mumkin. Menimcha, ushbu “C5 + 1” formatining eng muhim tomoni – bu oʻzaro ishonch va birdamlik muhitini shakllantirganidir. Bu oson ish emas, albatta, u uzoq vaqt talab etadi. Shunga qaramay, Yaponiya ushbu formatga asos solganidan faxrlanamiz. Bugun esa amaliy jihatdan katta ijobiy oʻzgarishlarni koʻrib turibmiz. Shu sababli, Yaponiya – Markaziy Osiyo davlatlarining hamkorligi va sherikligini mustahkamlash yoʻlidagi saʼy-harakatlarga, eng avvalo, oʻzaro ishonchni mustahkamlash orqali hamroh boʻlib kelayotganidan juda mamnunmiz.

– Sermazmun suhbat va foydali maʼlumotlaringiz uchun katta rahmat.

– Sizga ham fikr-mulohazalarimni bildirishga imkoniyat yaratganingiz uchun minnatdorlik bildiraman.

“Dunyo” AA.

MAQSADGA ERISHISHNING YAGONA YOʻLI – TAʼLIM

Bundan oʻn yil muqaddam BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) insoniyatning kelajagiga katta umid bagʻishlagan edi. 17 ta global maqsad, ayniqsa, birinchisi, 2030-yilgacha global miqyosda kambagʻallikka barham berish vazifasi dunyo hamjamiyati oldiga ulkan, ammo amalga oshirish mumkin boʻlgan vazifani qoʻydi. Biroq ushbu maqsadga olib boradigan yoʻl silliq kechaypti, deb boʻlmaydi.

Mushohada

Aytish joizki, hozirgi vaqtda insoniyat oqibatini oldindan aytib boʻlmaydigan oʻta keskin hamda murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Dunyoda geosiyosiy keskinlik, iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik tobora ortib borayotir. Eng tashvishlanarlisi – global iqtisodiy oʻsish surʼatining sekinlashuvi. Oqibatda, kambagʻallik darajasi boʻyicha ayanchli manzara yuzaga keldi. Agar besh yil oldin dunyoda 650 million aholi kambagʻallikda yashagan boʻlsa, bugun ularning soni 800 milliondan oshdi.

Bosh maqsadi inson qadriini ulugʻlash boʻlgan Yangi Oʻzbekistonda kambagʻallikka oshirilayotgan barcha islohotlar odamlar uchun munosib turmush sharoitini yaratish, xususan, kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgani bilan gʻoyatda muhim. Chunki inson qadri faqatgina soʻzda emas, balki har bir fuqaroning hayot sifatida, iqtisodiy imkoniyatlarida oʻz aksini topishi kerak.

Kambagʻallik nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muammo hamdir. Insonning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi, taʼlim olish, sogʻligʻini saqlash va jamiyatda munosib oʻrin egallashiga toʻsqinlik qiladi. Shu bois mamlakatimizda kambagʻallikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlardan biriga aylandi.

Muammoning yechimi nimada?

Mutaxassislarning taʼkidlashicha, kambagʻallikdan chiqishning eng toʻgʻri yoʻlaridan biri, bu – taʼlim sifatiini yaxshilash. Ishni navqiron avloddan boshlash kerak. Bilimli, maʼrifatli inson, tadbirkorlik ruhida oʻsib ulgʻayayotgan avlod ishtiyiq bilan oʻqiydi va yaxshi hayot qurish, oʻzi hamda oilasi uchun ishlaydi.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi bilan boshlangan islohotlar tufayli kambagʻallikka olib boradigan yoʻllar yopildi, kamchiliklar birin-ketin hal etilmokda. Islohotlarning kompleks amalga oshirilishi va siyosiy, iqtisodiy, maʼmuriy, ijtimoiy-maʼnaviy sohalarini qamrab olishi boshqa muammolarni qatori kambagʻallikka ham butkul barham beradi, degan ishonch bor. Kambagʻallikka qarshi pul bilan emas, aql va bilim bilan kurashish kerak. Shuning uchun kambagʻallarga baliq emas, qarmoq berish, yaʼni ularni bilimli qilaytirish, kasbga oʻrgatish va biznesga tortish – eng toʻgʻri yoʻl.

Prezidentimiz koʻp takrorlaydi: “Mening eng katta maqsadim – odamlarni boy qilish”. Bu esa qashshoqlikni tugatish, deganidir.



Davlatimiz rahbarining “Kambagʻallikdan farovonlik sari” mavzuidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida soʻzlagan nutqida taʼkidlanganidek, Yangi Oʻzbekistonda barcha islohotlar “Inson qadri uchun” degan tamoyil asosida amalga oshirilayotgani oʻz samalararini bermokda.

Izchil islohotlar tufayli 7,5 mln. kishi kambagʻallikdan chiqarilib, kambagʻallik darajasi 2024-yilda 8,9 foizga tushirildi. Joriy yil yakunigacha uni 6 foizgacha kamaytirish maqsad qilingan. Albatta, qisqa muddatda bunday natijalarga erishish oʻz-oʻzidan boʻlmaydi. Davlatimiz rahbarining pragmatik va oqilona siyosati tufayli oʻtgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyoti 2 karra oʻsgani, yil yakuni bilan aholi jon boshiga daromad 3,5 ming dollarga yetishi bu borada muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda.

Taʼkidlash joizki, yurtimizda muammoning yechimi sifatida yangi tashabbus hamda tajribalar sinovdan oʻtkazildi. Dunyodagi ijobiy yutuqlar oʻrganilib, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha Yangi Oʻzbekiston modeli yaratildi. Butun xalqaro jamoatchilik bu modelni eʼtirof etdi. Avvalo, oʻtish davrining muhim instrumenti boʻlgan manzilli iqtisodiy daftarlari joriy qilinib, imkon qadar barcha ehtiyojmand oilalar qamrab olindi.

Oʻzbekiston oʻz oldiga qoʻygan maqsadlarga erishish uchun yetitta ustuvor yoʻnalishni oʻz ichiga olgan “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirmokda. Eng avvalo, kambagʻal aholini shunchaki ishga joylashtirish emas, balki doimiy ish oʻrinlarini koʻpaytirib, odamlar barqaror daromad manbasiga ega boʻlishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Faol investitsiya siyosati tufayli shu yilning oʻzida 35 mlrd. dollar sarmoya evaziga 9 mingdan ortiq yangi korxonalar, 300 mingga yaqin yuqori daromadli ish oʻrinlari tashkil etilayotgani kambagʻallikni qisqartirishda eng toʻgʻri yoʻl. Zero, qulay ishlabarmonlik muhiti hisobiga oʻtgan sakkiz yilda 700 ming tadbirkor oʻzining barqaror biznesiga ega boʻldi.

Ahamiyat bering, davlat biznesga

sharoit yarataypti, tadbirkorlar esa oʻziga ijtimoiy masʼuliyat olib, ehtiyojmand aholini ishli hamda daromadli qilishda koʻmakchi boʻlmoqda. Mana shunday samarali hamkorlik tufayli shu yilning oʻzida 270 mingdan ziyod kambagʻal oila aʼzolari doimiy ishli boʻldi.

Taʼkidlash joizki, odamlarning bilimini oshirmasdan ularni “kambagʻallik girdobi”dan chiqarish imkonsiz. Shu bois sifati taʼlim asosida inson kapitalini rivojlantirish, uzoq muddatli istiqbolga kambagʻallikni qisqartirishning asosiy drayveri boʻlib qoladi.

Birgina misol, bolalarimizning bogʻchalarga qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 mln. ayol taʼlim olish, kasb-hunar oʻrganish va daromad topish imkoniga ega boʻldi. Soʻnggi besh yilda 800 mingdan ziyod aholi zamonaviy kasblarga oʻrgatilib, ular yuqori daromadli ishlarga joylashtirildi. Kelgusida xalqaro standartlar asosida Kasbga tayyorlash xalqaro markazlari tashkil etiladi, ularning bitiruvchilariga xorijda tan olinadigan sertifikatlar berish yoʻliga qoʻyiladi.

Shu bilan birga, yurtimizda ayollarni jamiyatning faol aʼzosiiga aylantirish masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Xotin-qizlarga oliygohda oʻqish uchun foizsiz kredit ajratish, magistraturada bepul taʼlim olish tizimi joriy qilindi. Bugungi kunda talabalarimiz 53 foizini xotin-qizlar tashkil etayotgani, shu yilning oʻzida 1 mln. 700 ming ayol ishli boʻlgani eʼtiborga molik. Kelgusi yilda ham “Raqamli avlod qizlari” dasturi doirasida 50 ming nafar qiz IT, moliyaviy texnologiyalar va sunʼiy intellektga oʻqitiladi. Shuningdek, mehnat bozorida ayollar uchun teng sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy sugʻurta tizimi qamrovi keskin oshirildi. Bu ularning kambagʻallikka tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Qolaversa, 140 ming kambagʻal oilaga shifokor birlashtiril, ularni yiliga bir marta toʻliq tibbiy koʻrikdan oʻtkazish yoʻliga qoʻyildi. Endi kafolatlangan tibbiy xizmatlar koʻpaytiriladi, kambagʻal oilalarning bunga sarf qiladigan xarajati ikki karra qisqartiriladi. Bunda ularga bepul dori va kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi taqdim etiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi bilan manzilli ishlash – kambagʻallikka qarshi kurashda asosiy yoʻnalishlardan biri. Imkoniyati cheklangan aholining kambagʻallikka tushib qolish ehtimoli yuqori. Shu bois ularni qoʻllab-quvvatlash, inklyuzivlik asosida jamiyatga integratsiya qilish boʻyicha yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Munosib mehnat sharoiti yaratilgani

Umuman, har bir mahallaga biznes muhiti, har bir oilaga farovonlik kirib borishda davom etadi. Bunday keng koʻlamli saʼy-harakatlar hisobiga Oʻzbekiston 2030-yilga qadar kambagʻallikni ikki karra qisqartirish boʻyicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilmoqda. Ezgu maqsad yoʻlida qoʻyilgan qatʼiy qadamlar esa, albatta, oʻz natijasini beradi.

KOʻP QIRRALI HAMKORLIK ISTIQBOLLARI



Oʻzbekistonning 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini keskin oshirish borasidagi rejalarda yapon “nou-xau”lari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, “yashil” vodorod ishlab chiqarish, quyosh va shamol stansiyalarini qurish, shuningdek, sanoat korxonalarida karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish boʻyicha qoʻshma loyihalar muhokama markazida boʻladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki Orolboʻyi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Prezidentimizning “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti davlat rahbarlarining birinchi sammitida qatnashishi esa mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlashning yangi drayveri boʻladi. Zero, sammit doirasida barqaror taraqqiyot va “yashil” integratsiya masalalari alohida koʻrib chiqiladi. Tadbir yakunida qabul qilinishi kutilayotgan Tokio deklaratsiyasi nafaqat iqtisodiy va ekologik, balki inson resurslarini rivojlantirish boʻyicha ham uzoq muddatli strategiyani belgilab beradi.

Davlatimiz rahbarining ushbu mamlakatga tashrifi doirasida boʻlib oʻtadigan oliy darajadagi muloqotlar ikki xalq oʻrtasidagi anʼanaviy doʻstlikni yangi amaliy mazmun bilan boyitib, mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni taʼminlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, siyosiy, iqtisodiy hamda sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish, taʼlim va ilmiy aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.

Dilbar MAMAJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati.

